

SEN - QUDRAT MANBAI, SAODAT MASKANI, JONAJON O'ZBEKISTONIM!

Tong

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!



N: 33-34 (67302-03)  
2020-yil 7-sentyabr

yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

## QADDRON O'QUVCHIM, SIZNI SOG'INDIM

5-«V» sinf o'quvchilariga

Mustaqil, serquyosh O'zbekistonda,  
Qalbi zavqqa to'la farishtalarim,  
Bolalikni madh etgan gulg'unchalarim,  
Ko'zlarida mehr bor ko'zmunchoqlarim,  
Qaddron o'quvchim, sizni sog'indim.

Sinfda ularning shovqin-suroni,  
Jaranglab turibdi quvnoq kulgisi.  
Yuragim hapqirib ketadi nogoh,  
Sizlarni sog'indim, aziz o'quvchim.

Sinovli kunlar ham o'tib ketadi,  
Musaffo osmonda quyosh kuladi.  
Biz yana birgamiz, aziz bolajon,  
Qaddron o'quvchim, sizni sog'indim.

Shodlik va kulgiga to'lsin bu jahon,  
Olamda yangrasin kuy, navo, qo'shiq.  
Siz bilan birlashib suramiz davron,  
Sizlarni sog'indim, aziz o'quvchim.

Jonajon maktabning issiq bag'rida,  
Qalbi qaynoq, mehribon ustoz qo'lida.  
Siz ta'lim olasiz go'zal bo'stonda,  
Gullab-yashnayotgan O'zbekistonda!

**Dilafruz O'ROQOVA,**  
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi  
38-umumta'lim maktabining ona tili va  
adabiyot fani o'qituvchisi


## MARD O'G'LONLAR YURT TAYANCHI

Mustaqillik bayrami arafasida yurtimiz bo'ylab qanot yozgan yangiliklarni sanab sanog'iga yetolmay qoldik. Yer usti metrolari-yu yangi inshootlar, keng va ravon yo'llar barchamizning bahri dilimizni ochdi. Bayram arafasida Prezidentimizning Qaroriga muvofiq yurtimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lgan insonlarning xonadonlarida qo'shaloq tantana nishonlandi. O'zining shijoati, izlanishlari, bilim darajasining yuqoriligi va yurt istiqboli uchun munosib hissa qo'shayotgan «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar orasida o'quvchilar ham borligini eshitgach, quvonchlarini ichiga sig'mayotgan tengdoshlaringiz bilan darhol bog'landik.

2-bet

- Yozgi ta'til kunlarini qishloqda o'tkazishni xush ko'rardim. U yerda ham bekor yurmay deb, broller tovuqlar boqa boshladim. Ularga doimiy parvarish zarur, gohida qishloqqa kelmagan kunlarimiz tovuqlarga qaray olmasdik, shu bois, xayolimga «Aqlli katak» yaratish keldi va buning uddasidan chiqdim. Bu ixtiroim tovuqlarni professional hoqish uchun yaratilganligi mutaxassislarining alohida e'tiborini qozondi, - deydi «Mard o'g'lon» davlat mukofoti sohibi Suhrob Haydarov.





**Bahodir KARIMOV,**  
filologiya fanlari doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasida xizmat  
ko'rsatgan yoshlar murabbiyi

Muhtaram o'quvchi! Siz har kuni maktabda muallimlar bilan yuzlashasiz, ulardan ta'lim va tarbiya olasiz. Shu keyingi «tarbiya» so'zi bilan «murabbiy» so'zi o'zaro o'zakdosh. Murabbiy yoshlarning o'sib-ulg'ayishiga, yaxshi inson bo'lib yetishmogi uchun mas'ul. Murabbiy yoshlarga g'amxo'rlik qiladi, ularning dunyoqarashini shakllantiradi. Murabbiy bolalar va yoshlar qalbiga yaxshilik, odamiylik, mehnatsevarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini joylashtiradi. Shu tuyg'ularning

# MUALLIM VA MURABBIY BOG'I

**Insonning qilgan mehnati qadr topsa, ko'ngli quvonchga to'ladi. Ayniqsa, so'z bilan ishlaydigan, badiiy adabiyot bilan shug'ullanadigan insonlar bunday mehr-muruvvatdan benihoya hayajonlanadi.**

kamoli yo'lida tinim bilmay mehnat qiladi, tunlari ko'zlaridan uyqu qochadi. Shogirdlari kamolidan ko'ngli tog'day yuksaladi...

Bu mashaqqatli yo'lida muallim-murabbiy birinchi navbatda boshqalarga har jihatdan o'zi ibrat va namuna bo'lmog'i lozim. Shunda nihollar ulg'ayadi, shunda muallim va murabbiyning bog'i meva beradi.

Muallimlar ta'lim-tarbiya berayotgan siz aziz o'quvchilar kelajakda hunar egallaysiz, qaysidir sohada mutaxassis bo'lib yetishasiz. Ehtimol, ulkan matematik yoki taniqli adib, hamma havas qiladigan kosmonavt yoki davlatlararo munosabatlarni maromga solib turguvchi diplomat, yer bilimdoni – agronom yoki binolar bunyodkori – muhandis bo'lasiz. Bunga shubha yo'q. Zero, bir holga aminmanki, sizga ta'lim va tarbiya bergan ustozlarni umr bo'yi esdan chiqarmaysiz. Ularning o'g'itlarini, sizga tavsiya qilgan kitoblardan o'qib olingan hikmatlarni o'z hayot yo'lingizga tadbiiq etasiz

va saodatli inson – SHAXS bo'lib kamol topasiz. Bunday bebaho natijalarga erishmoq uchun ma'naviy-ruhiy yetilish – odob kerak, o'qish kerak, uqish kerak.

Kuni kecha menga «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi» faxriy unvoni berildi. Quvondim. Azizlarim, ularning barchasi sizlar tufayli. Siz kabi shogirdlarimning mehr-muruvvati, duolari, o'z ish joylarida biz bergan ta'lim va tarbiyani tugal oqlab yurganlari natijasidir bu unvon ham. Ayni damda, ustozlarimning xizmati deb bilaman buni. Men O'zbekiston Milliy universitetida juda yaxshi, diyonatli, ulkan alloma ustozlardan adabiyot sirlarini o'rgandim va ularning inshonchini qaysidir ma'noda imkon qadar oqladim.

Aziz o'quvchilar! Barchangizga shu Vatan, shu tuproq, el-yurt uchun chin yurakdan xizmat qiladigan CHIN INSON bo'lib yetishmog'ingizni tilayman.

## MARD O'G'LONLAR YURT TAYANCHI

(Davomi. Boshi 1-betda)

Birinchi suhbatdoshimiz Hasan NURULLAYEV, Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 64-umumta'lim maktabi o'quvchisi. U ukasi Husan bilan birgalikda tumandagi 13-Bolalar musiqa va san'at maktabining an'anaviy xonandalik sinfida ustozi, O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi Shavkat aka Melikulovdan mumtoz qo'shiqlarni kuylashning sir-u asrorlarini qunt bilan o'rganishmoqda.

– Bu yilgi bayram men uchun unutilmas bo'ldi, – deydi Hasan. – «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlanishimda nafaqat mening, balki ustozlarimning ham mehnatlari cheksiz deb bilaman. Axir ularning sa'y-harakatlari bois, bugun mana shunday muvaffaqiyatga erishdim. Buning uchun ulardan minnatdorman. Kelgusida o'zbek qo'shiqchiligi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib, ustozlarimning izidan borishni niyat qilganman, – deydi bo'lajak xonanda. Tirishqoq tengdoshingiz Hasanning ushbu mukofot bilan taqdirlangani bilan qutlash uchun tuman hokimi Botir Jabborov tashrif buyurib, mard o'g'lonni bundan-da yuksak mukofotlar olib, tumani, qolaversa, yurtimiz uchun munosib farzand bo'lishiga

tilak bildirdi. Hasan ayni kunlarda ukasi Husan bilan birga oktyabr oyida Ozarbayjonda o'tkaziladigan IX Xalqaro mug'om festivalida qatnashish uchun tayyorgarlikni



**Hasan**

boshlab yuborishgan. Omad sizlarga hamisha yor bo'lsin, Hasan va Husan!

Har birimiz xuddi insondek gapira oladigan robotlarga hayrat ko'zi bilan boqamiz. Axir bu mo'jizaning o'zi-ku! Navoiy shahridagi 4-DIUM o'quvchisi Suhrob Haydarov yuqorida misol qilgan robotlarni bimalol yasay oladi. Uning bu qobiliyatlarini fahmlagan otasi farzandiga yanada kengroq imkoniyat yaratib berdi. Internet orqali qurish, yasash bo'yicha turli videoroliklarni ko'rishni tavsiya qildi. Kompyuterdan

unumli foydalana olgan Suhrob endi koreys, rus va ingliz tillarini mustaqil o'rgana boshladi. Uning til o'rganish-u robototexnikaga qiziqishi tobora orta bordi.

Bu ixtirodan zavqlangan tengdoshingiz «RobotMaks» IT texnologiyasini yaratdi. Maks ingliz, koreys va fransuz tillarida erkin so'zlashish bilan birga, bola-jonlarga ushbu tillarni o'rgata olishi omma e'tiborini o'ziga jalb etdi. Asta-sekinlik bilan Suhrob robototexnika olimpiadalari va ko'rik-tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinnarni qo'lga kiritib boshladi.

– Prezidentimizning viloyat hokimlariga «IT-PARK»larni barpo etish bo'yicha topshiriq berganlarida, axborot kommunikatsiyasiga qiziquvchi men singari yoshlar juda xursand bo'ldi. Biz yoshlar axborot texnologiyalari sohasida yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalanib, kelgusida Vatanimiz ravnaqi uchun munosib hissa qo'shamiz, – deydi Suhrob.

Ayni damda Suhrob Haydarov Navoiy viloyatida «Barkamol

avlod» bolalar maktabida tashkil etilgan «Yosh olimlar klubi»ga rahbarlik qilmoqda. Shuningdek, «IT-PARK» huzuridagi «Raqamli texnologiyalar markazi»da mentor vazifasida ham faoliyat yuritayapti.



**Suhrob**

**Davlatimiz rahbari tomonidan ta'sis etilgan mukofotga sazovor bo'lgan tengdoshlaringizning orzulari chek-chegasiz. Ular bundan ruhlanib, izlanishga, faoliyatlarini yanada rivojlantirishga harakat qilmoqdalar. Nima ham derdik, ularning bugungi muvaffaqiyati ertangi erishilajak g'alabaga tamal toshini qo'yishi, shubhasiz. Bu yo'lda esa ularga omad yor bo'lsin!**

Ozoda TURSUNBOYEVA

# AXIR SEN O'ZBEKISTON SAN!

**Assalomu alaykum, onajon O'zbekistonim!**

**Bugun qo'linga qog'oz, qalam oldim-u senga maktub yozishga kirishdim. Avvaliga nimalarni yozish haqida biroz o'ylanib qoldim. Keyin esa qalbm buyurganini, yuragim aytganini, ko'nglim ko'rsatganini yoza boshladim.**



Ona bag'ridek issiq, taftli, mehrlil quchog'ingda ilk bor «ingaaa»lab, dunyo yuzini ko'rganimga ham o'n sakkiz yil bo'libdi. O'n sakkiz yil-a... Shu yillar davomida insonni qadrlash, odamlarga yaxshilik qilish, tafakkur bilan fikrlash, bo'sh vaqtdan unumli foydalanish kabi hayotiy saodat fanlarini o'qib, o'rganib kelyapman. Yaqinda o'sha fanlardan qanday baho olayotganim haqida o'zimga savol berdim. Onajonim, Vatanim, kechir meni, baholarim a'lo emas. Iltimos, xafa bo'lma, baholarimni, albatta, yaxshilayman. Bilaman... Sen mendan xafa bo'lmaysan. Axir qaysi ona o'z farzandidan ranjiydi? Bormi shunaqa onalar? Yo'q... Boringga shukur, onajon Vatani!

Kecha chuqur xayolga cho'mdim. O'zimcha xayolan Sohobqiron Amir Temur bobomiz bilan suhbat qurdim. Afsuski, sarkarda bobomizning suratini, chaqin chaqnab turadigan ko'zlarini, mazmundor so'zlarini, nurli, mehrlil yuzlarini tasvirlashga qalamim ojizlik qiladi. Sohobqiron bobomiz juda xursand edilar. Menga «Kulfatda birlashadigan, yaxshilikka ishonib yashaydigan, ulug' Haq yo'lida iymonni hamroh qilgan xalqning ijodkor farzandi – nabiram», deya murojaat qildilar. O'zbekistonjon, bilasanmi, o'sha paytda shu qadar quvondimki, shu qadar g'ururlandimki, uni so'zga sig'dirib bo'lmaydi. Men Amir Temurning nabirasiman. Buni menga Temur bobomning o'zlari aytdilar...

O'zim bilan o'zim gaplashayotganimni, takror-takror rahmat aytaётganimni ko'rib, ayajonim sekin turtib qo'ydi. Shirin xayol

olamimni tark etib, ko'rganlarimni yozishga tushdim. Eng birinchi bo'lib nimani yozganimni bilasanmi? «Men Amir Temurning nabirasiman», deb yozdim.

2020-yil boshida juda ko'p niyat qilgandim. Niyatlarim birin-ketin amalga oshyapti, orzularim ushalyapti. Sen-chi, Onajon?! Sen ham yaxshi niyatlar qilgan eding. Duoga ochilgan qo'llaringni, ezgu niyatlar aytib, pichirlayotgan lablaringni, umid nur sochib turgan ko'zlaringni ko'rgandim. Shukur, mush-tarak tilaklarimiz mustajob bo'lmoqda. Yangi yil irodamizni yangi chig'iridan o'tkazdi va hozir ham o'tkazayapti. Buxoroda, Sardobada bo'lgan talofatlar irodamizning mustahkamligini, bir tan-u bir jon ekanligimizni, birgalikda naqadar kuchli, qudratli ekanligimizni isbotladi. Ilohim, Buxoro shamollari hamma kul-fatlarni, g'amlarni, dardlarni hech kimsa yo'q joylarga uchirib ketgan bo'lsin. Qalblardagi gina-kudurat-larni, nafratlarni, barcha salbiy illatlarni Sardobaning suvlari yuvib ketgan bo'lsin!

Vatanjonim, Sardoba suv omboridagi texnogen vaziyatdan talofat ko'rgan, qiyin vaziyatga tushib qolgan sardobaliklarga yordam berish, og'ir damlarda ularning

yonida bo'lish uchun men ham ko'ngilli yoshlar safiga qo'shildim. Jajji bolajonlarga boshga kulfat tushganda sabr qilish, irodali bo'lish kerakligini ertaklar orqali, ertaklardagi ijobiy qahramonlar obrazi orqali tushuntirishga harakat qildim. O'shanda qator-qator mashinalarda kelayotgan saxovat karvonlarini, o'zining kiyimini mil-latdoshlarimga deb olib kelayotgan

mehr-oqibatli, saxovatli xalqing bilan har qanday sinovlarni yengishga qodirsan. Axir sen O'zbekistonsan!

Inson uchun qudrat ona Vatandir. Saodat – ana shu Vatanga beg'araz xizmat qilish. O'zbekistonjon, biz farzandlaringga cheksiz qudrat berganing uchun tashakkur! Saodatli bo'lish yo'lida xizmatimiz, mehnatimiz va mu-

## ONA + VATAN = ONA VATAN

**Men endigina 1-sinfni tugatib, 2-sinfga qadam qo'ydim. Ustozim ilk bora qo'limdan tutib Ona, Vatan so'zlarini o'rgatganida, Vatanning onadek muqaddasligini his qildim. Eng sevgan mashg'ulotim rasm chizish.**

Har safar Vatan rasmini chizmoqchi bo'lganimda, ko'z o'ngimda yurtimizning go'zal tabiati, shaharlari, qishloqlarida qad ko'targan binolari, tarixiy obidalari, shifobaxsh buloqlari, giyohlari, uning noz-u ne'matlari, ota-bobolarimizdan qolgan o'zbekona milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini jonlanaveradi, eh-he, bularning barini aks ettiraman desam, qog'ozlarga sig'maydi.

Shuning uchun Vatanimning rasmini chizishga qiynalaman. Birgina Vatan so'zi tug'ilgan joyimizning gina emas, balki bizga qadrlil bo'lgan hamma-ni – ota-onamiz, oila a'zolarimiz, qarindosh, mahalladosh, maktab-dosh, sinfdoshlarimizni, qadrdon go'shalarimiz – mahallamiz, mak-tabimiz, xullas, bizni o'rab turgan borliqni anglatadi. Shu bois ham men shunday xulosaga keldimki, dunyoning eng mohir rassomi ham Vatanning asl suratini chiza olmaydi, uni faqat yurakdan his qilish kerak. Ana shundagina butun borliqni qalbdagi to'la aks ettirish mumkin. Vatan biz uchun juda aziz bo'lgani sababli unga «ona» so'zini qo'shib aytamiz. Men ham Vatanimni xuddi onamdek yaxshi ko'raman.

**Lazizxon JO'RAYEV,  
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi  
183-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi**

habbatimizni  
ayamaymiz.

Mislsiz qudrat manbai, saodat maskani, jonajon O'zbekistonim, tug'ilgan kuning muborak! Orzu-umidlarimiz tug'ilgan sana – Mustaqillik kuni barchamizga muborak bo'lsin!

**Yorqinjon HAYITBOYEV,  
Guliston davlat universiteti  
talabasi**



## SAMARQANDLIK O'QUVCHILAR SAHIFAMIZ MEHMONI

# BOBOMNING BEBAHO BOYLIIGI

«Odamzodning, bu dunyodagi yakka-yu yagona, oliy vazifasi o'z taqdirini ro'yobga chiqarishga erishishdir... Bu sirli qudrat inson zotiga g'animday tuyuladi, aslida esa o'z taqdirini ro'yobga chiqarish yo'lini xuddi ana shu qudrat ko'rsatib beradi. U insonning ruhini va erkini o'sha buyuk vazifaga tayyorlaydi.

Bu kurrai zaminda oliy bir haqiqat mavjud: qachonki sen nimanidir astoydil istasang, albatta, unga erishasan, chunki bunday istak odamning ruhida dunyoga kelgan bo'ladi. Sen yer yuzida xuddi ana shuning uchun yaratilgansan».

Paulo Koelonning «Alkimyogar» asarini o'qib, butun his-tuyg'ularimga, orzularimga rang, jon kirganday bo'ldi. Asarni o'qir ekanman, demak, inson o'z orzusi yo'lida qat'iy harakat qilsa, bilim olishga bel bog'lasa, unga butun olam yordamga keladi va u o'z maqsadiga, albatta, erishadi.

Yoshligimdan fantastik qissa, romanlar o'qishga qiziqardim va ko'pincha sirli voqealarni o'ylab topib, ko'p xayol surardim. Xayolimdagi qahramonlar obrazida o'zimni tasavvur etardim. Yerdagi hayotni xayolan butunlay o'zgartirgim va hammaning ko'z o'ngida super qahramonga aylangim kelardi. Endi yoshim ancha ulg'aydi, bu yil 11-sinf-ga boraman. Real hayotga tik boqib, orzularimni ro'yobga chiqarishimga ham oz qolmoqda. Bunga erishishim uchun ham bilim olishim kerakligini, maqsad yo'lida eng yaqin do'stim kitob ekanligini anglab yetganman. Hayotda hamma narsaga bilim orqali, kitobga do'st tutinish orqali erishiladi.

Yoshligimda bobomning uylariga tez-tez mehmonga borib turardik. Bobomning xonasi kitoblar bilan limmo-lim edi.

U yerdan badiiy kitob deysizmi, ilmiy asarlar deysizmi, ertak va hikoyalar deysizmi, xohlagan kitobingizni topasiz. Bobom bu kitoblarni juda avaylar edilar, bizga o'qishga bersalar, albatta: «Kitobga chizma, yirtma, uni avaylab-asragin, qadriga yetgin. Kitobni yirtsang, unga chizsang, kitob sendan xafa bo'ladi. U insonning eng yaqin do'sti. Shuning uchun eng yaqin do'stingga muomala qilganday munosabatda bo'lgin, chunki ularni sendan boshqalar ham o'qiydi. Shundagina kitoblar ham senga bag'rini ochib, orzularing sari yetaklaydi», derdilar. Bobomning bu nasihatlari murg'ak qalbimda kitobga mehr uyg'otdi.

Demak, kelajakdagi orzularimga erishishimda yordam beradigan eng sodiq do'stim bu kitob.

**Kamronbek ALLANAZAROV,**  
Jomboy tumanidagi 40-DIUM  
o'quvchisi

Barchamizga ma'lumki, kitob bilim dunyosining quyoshidir. U shunday charog'on quyoshki, o'qiganing sari qalbing nurlanaveradi.

## SHUNDAY CHAROG'ON QUYOSHKI...

Hech e'tibor berganmisiz, bolakay kitob o'qiyotgan onasiga uning qo'lida xuddi bir mo'jizani ko'rayotgandek tikiladi. To'g'ri, bu bir oddiy holdek, go'yo. Ammo murg'ak qalbdagi kitobga mehr shu oddiy holdan boshlanadi. Agar ona bu vaziyatni to'g'ri baholab, farzandini yoniga olib, unga kitob o'qib bersa, kitob insonning eng sodiq do'sti ekanligini tushuntirsa, tarbiya borasida to'g'ri yo'lida bo'ladi.

Afsuski, oramizda mutolaa yaratadigan mo'jizadan bahramand bo'lolmaydiganlar ham yo'q emas. Bunga asosiy sabab qilib bugungi kunda internetni, ijtimoiy tarmoqlarni ayblayapmiz. Xullas, salbiy jihat bilan bog'liq nimaiki holat bo'lsa, internetni ayblashga odatlanib qolganmiz. Shunday bo'lsa-da, qimmatli vaqtimizni mutolaa bilan emas, ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazyapmiz. Zero, inson kamolotida bilimning o'rnini hech narsa bosa olmaydi. Bilimni esa biz faqat kitobdan olishimiz mumkin.

Aziz do'stlarim, endi xulosa chiqarish Sizdan: bo'sh vaqtingizni ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazganingiz ma'qulmi yoki kitobga oshno bo'lganingiz yaxshimi?! Unutmang, bizga eng sodiq do'st, ko'makchi, dono maslahatchi shubhasiz – KITOB!

**Sevinch XOLIQOVA,**  
Paxtachi tumanidagi  
40-umumta'lim maktabi o'quvchisi



# G'AROYIB TUHFA

Bugun Sardor uchun boshqacha kun. Sababi, u 12 yoshga to'ldi. Dadasi velosiped, oyisi planshet sovg'a qildi. U Abdulla bobosidan ham o'zgacha sovg'a kutayotgandi. Sardor bobosidan juda ajoyib tilaklar eshitdi, so'ng sovg'a oldi. Sovg'ani oldi-yu, kayfiyati tushib ketdi, juda xafa bo'ldi. Chunki bobosining sovg'asi kitob ekan. Buni ko'rgan Abdulla boboning yuzi tundlashdi va shunday hikoya boshladi:

– Juda eski, devorlari nuragan, yog'ingarchilik bo'lganida tomidan doim chakka o'tadigan uyda Abdulla ismli bir bola yashardi. Uning dadasi maktabda oddiy qorovul bo'lib ishlardi. Shu sababli, oilaning moddiy ahvoli juda og'ir edi. Shunga qaramay, Abdullaning dadasi har gal oylik maoshini olganida, uyiga ikkita non bilan bitta kitob olib kelar ekan. Abdulla doimo dadasiga yordam berishni, ishlab pul topishni xohlar ekan. Lekin bu niyatini dadasiga aytsa, har doim rad javobini olarkan. «Men o'qiy olmadim. Mening qiynalganim yetadi, sen kitob o'qi, oliy ma'lumotli bo'l, o'g'lim. Bilimli, ilmi, Vatanimizga nafi tegadigan inson bo'lgin», deb tinmay ta'kidlardi.

Abdullaning Ilyos ismli qo'shni sinfdoshi bo'lib, u juda hashamatli, bezakdor uyda yashardi. Uning dadasi badavlat, tadbirkor inson

Bugun kitob o'qigan bitta bola ertaga televizor ko'rib o'tirgan o'nta bolani boshqarishi mumkin!

**Shavkat MIRZIYOYEV**

edi. Ilyosga barcha sharoitlarni yaratib bergandi. Kitob o'qish u yoqda tursin, dars tayyorlash uchun qo'lga darslik kitoblarini olganida dadasi unga: «Ey o'g'lim, yig'ishtir bu qog'ozlaringni. Kitob o'qib shahar olib berarmiding?! Mana men, umrimda kitob o'qimaganim, dars qilmaganim, lekin shuncha pulim bor. Sen ham xavotir olma, baholaringni o'zim to'g'irlatib beraman, kela-jakda esa kitob o'qimasdan ham mendek badavlat bo'la olasan», der ekan doim.

Abdulla esa dadasi olib bergan kitoblardan bosh ko'tarmas, maktabda faol, fanlardan baholari «besh» ekan.

Yillar o'tdi. Abdulla kitob o'qib, puxta bilim olib, oliy o'quv yurtiga o'qishga kirdi. Ilyos esa maktab davrida doimo darsdan qochishi, kompyuter o'ynashi, o'ziga o'xshagan dangasa, bezori bolalar bilan yurishi natijasida qimorboz bo'ldi. Ko'p odamlardan qarzdor bo'lib qolgani bois, otasi bor-yo'g'ini sotdi,



xonavayron bo'ldi. Bor-budidan ayrilgach ichkilikka ruju qo'ydi, juda xarob ahvolga tushdi. Bu orada Abdulla o'qishni muvaffaqiyatli tamomladi, o'z kasbining ustasi bo'ldi, ko'p yutuqlarga erishdi. Nochor ahvolda kun kechirgan oila kitob tufayli, mutolaa tufayli o'zini tiklab oldi. Ilyos esa uysiz darbadar bo'lib, ko'chada qoldi.

Sardor bobosining hikoyasini eshitdi-yu, kitoblarni bag'riga bosgan xonasiga kirib ketdi.

Oradan kunlar o'tdi. Abdulla bobo yana yangi kitoblar olib, nabirasi Sardorga berish uchun xonasiga kirganida, u uxlab yotardi. Shunda boboning ko'zi

xona devorlaridagi quyidagi yozuvlarga tushdi: «Kitobni sev, unga do'st tutin», «Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir».

Abdulla boboning yuziga tabassum yugurdi, nabirasini kitobga oshno qila olganidan ko'ngli taskin topdi.

**Diyorbek AKBAROV,**  
Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi  
7-umumta'lim maktabi o'quvchisi

# FARZANDINGIZ BILAN BIRGA KITOB MUTOLAA QILGANMISIZ?

*Alloh dastavval  
borliqni, tabiatni, so'ngra insonni yaratgan. Sababi, inson  
o'z ongi, did-farosati bilan borliqqa hayot baxsh etadi, uni go'zallashtiradi.  
O'z aql-idroki, bilimi bilan ko'plab xitrolar qilishga qodir.*

Zamonamiz shiddat bilan rivojlanib, gurkirab bormoqda. Tuprog'ida zar unadigan ona Vatanimiz tinchligi, osoyishtaligi, tunlarimiz osudaligi, iqtidorli farzandlarimizning jahon minbarlarida yurt bayrog'ini hilpiratishi, o'z tilimiz, dinimiz, erkinligimizga ega ekanligimiz – bularning barchasi o'z-o'zidan bo'lgani yo'q, albatta. Galdagi vazifamiz – farzandlarimiz kamoloti uchun zamon bilan hamnafas bo'lib, taraqqiyot sari olg'a intilishlari uchun ularning tafakkurini o'stirishimiz kerak. Buning uchun esa, eng avvalo, kitob mutolaasiga katta e'tibor qaratishimiz muhim. To'g'ri, umumta'lim maktablarida



kitobxonlik kechalari tez-tez o'tkaziladi. Ammo bunday tanlovlarga barcha o'quvchilarni to'raligicha qamrab olishning imkonini yo'q. Shuning uchun ham bu borada Sizni hamjihatlikka chorlaymiz, qadrli ota-onalar.

Bir eslab ko'ring-chi, farzandingiz bilan birga kitob mutolaa qilganmisiz? Qaysi mavzudagi kitoblarni o'qiyotganini bilasizmi? O'qigan asarlarini qay darajada uqqanini sinovdan o'tkazganmisiz? O'qilgan asarlar yuzasidan oilaviy suhbat qurganmisiz? Farzandingizni qo'ldan yetaklab ma'naviy maskanlarga – kutubxonalarga, muzeylarga, teatrlarga olib borganmisiz? Yo'q, deysizmi?! Unda nega farzandingizda o'zingizda bo'lmagan jihatlarni ko'rishni xohlayapsiz? Balki vaqtigingizning tug'ilgini, barchasiga birdek ulgurishning imkonini yo'qligini ro'kach qilarsiz. Balki mendan ranjigandirsiz. Ko'zingizning oq-u qorasi bo'lgan jigarbandingizning hech narsaga zoriqib o'smasligi uchun tinim bilmay erta-yu kech pul topish ilinjida yelib-yugurayotgandirsiz. Ularni moddiy jihatdan ta'minlab, ma'naviy jihatdan tafakkurida bo'shliq paydo bo'layotganiga ahamiyat bermayotgandirsiz. Keling, aziz ota-onalar, bobo-buvijonlar, kelajagimiz egalarni ham ma'an, ham jismonan yetuk bo'lib voyaga yetishlari uchun birgalikda qayg'uraylik. Ularga zarur sharoitlarni yaratib beraylik. Qarindosh-urug'lar, do'st-u birodarlar orasida kitobxonlik kechalarini o'tkazishda tashabbus ko'rsataylik. Buyuk hakim Suqrot aytganidek: «Tarbiya qiyin ish va

tarbiya shart-sharoitlarini yaxshilash har qanday kishining muqaddas burchlaridan biri, zero, o'zini va tevarak-atrofidagilarni ma'lumotli qilishdan ham ko'ra muhimroq ish yo'q».

Biz buyuk millatimiz, betakror urf-odatlarimiz, qadim qadriyatlarimiz bor. Farzand-

larimizni ana shu qadriyatlar asosida tarbiyalashga intilamiz. Ammo hozirgi kunda ularni salbiy axborot xurujlaridan asrash ota-onalar uchun ham oson kechmayapti. Asosiy vazifamiz yosh avlodning ongini internetdagi buzg'unchi saytlar, zararli, yot g'oyalardan asrashdir. Chunki bir zumgina g'afatda qolsak, ular farzandlarimizni o'z domiga tortib ketishi tayin. Shunday ekan, qadrli ota-onalar, farzandlarimizning har tomonlama yetuk inson bo'lib ulg'ayishi va porloq kelajagi uchun siz-u biz – muallimlar barcha ma'naviy kuchlarimizni birlashtiraylik. Bolalarimizda jaholatga qarshi mustahkam ma'rifiy immunitetni shakllantiraylik.

Navqiron avlodning ma'naviy, axloqiy dunyosini boyitish hamda kamol toptirishga xizmat qiluvchi asarlar talaygina. Vaqt oliy hakam, deyishadi. Bani bashar tarixida oliy hakam chig'iriqlaridan o'tib, adabiyot sari yuz tutgan ma'naviy-madaniy meros namunalarini ko'plab topiladi. Ne baxtki, buyuk insonlarning tafakkuri mahsuli o'laroq yaratilgan ushbu bebaho namunalar orasida ulug' shoir, mutafakkir Alisher Navoiy merosi ham alohida o'rin tutadi. Ularni birgalikda o'qib, komillik sari intilaylik, barkamol avlod tarbiyasiga g'oyat katta e'tibor qarataylik. Shundagina mehr, oqibat, insoniylik tushunchalari qadr topadi.

**Maqsuda DO'STMURODOVA,**  
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi  
35-umumta'lim maktabi  
o'qituvchisi

Ota-  
onangiz  
bilan  
o'qing!

O'g'il-qizlarimiz «Kindik qonim to'kilgan shu muqaddas zamin – mening Vatanim! Uni hech narsaga alishmayman» shiori ostida ulg'aymoqda.

## MURG'AK QALBLARDA VATAN TUYG'USI



Yoshlarimiz qalbidagi vatanparvarlik tuyg'usini ko'rib, ko'nglimiz o'sadi, ko'ksimiz yuksaladi. Bu muqaddas tuyg'u inson qalbidagi bolalikdan paydo bo'ladi. Eng avvalo, oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotida, keyinchalik

esa ta'limning keyingi bosqichlarida shakllanib boraверади. Murg'ak qalblarda vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otish, Istiqlolimiz qadriini yuksaltirish, bir so'z bilan aytganda, ularning qalbidagi ezigulik urug'ini undirish biz ustoz-muallimlar zimmasidadir. Shuning uchun ham o'tayotgan har bir darsimiz, tarbiyaviy mashg'ulotimiz zamiriga ana shu g'oyalarni singdirishga harakat qilamiz.

Men ham bunday mashg'ulotlarni o'z o'quv dasturimiga kiritganman. Bolalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish barobarida, ularga odob-axloq qoida va me'yorlarini o'rgatish, ona tabiatga mehr uyg'otish maqsadida o'tkaziladigan bunday mashg'ulotlar interfaol usulda olib borilib, guruhlarda ishlash, rag'batlantirish orqali kichkintoylar bilimini baholashga qaratiladi.

Tarbiyaviy mashg'ulot jihozlari sifatida Davlat ramzlari tasviri, xarita, globus, mashg'ulot ishlanmasi, savollar, tarqatma materiallar va turli sxemalar, kichik sahnada o'rnatilgan yozuv taxtasiga ko'rgazma va rasmlar ilib qo'yiladi. Mashg'ulotimizni respublikamizning Davlat madhiyasini ijro etish bilan boshlaymiz. So'ngra, navbat savol-javoblarga beriladi:

**Davlat ramzlariga nimalar kiradi? Ular haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nima deyilgan? O'zbekiston Davlat bayrog'i qachon qabul qilingan va unda nimalar aks ettirilgan? Gerbida-chi? Prezidentimiz tomonidan 2020-yil qanday nomlangan? Hukumatimiz tomonidan ta'sis etilgan qanday orden, medal va nishonlarni bilasiz kabi savollar atrofida fikrlashamiz.**

Savollarga javob olingach, yozuv taxtasiga «Sen qudrat manbai, saodat maskani, jon O'zbekiston!» mavzusi yoziladi. «Vatan» hamda «Zamin» guruhlariga bo'lingan o'quvchilarni kichik sahnaga ilingan sxema va diagrammalar, «O'yla, izla, top!», «Sirli sharcha» kabi chizmalarni talqin etib, krossvord, chaynvord hamda rebuslar yechishadi.

Mashg'ulotimizning so'nggi shartida o'quvchilardan Vatan haqidagi she'rlarni yoddan aytish, xalq maqollari va aforizmlardan namunalar keltirish, qo'shiq kuylash, raqs ijro etish va rasm chizish talab etiladi. Hozirjavob, zukko, o'z fikrini erkin ifodalay oladigan o'quvchilar rag'batlantiriladi.



Umid qilamanki, yangi o'quv yilida o'tkazadigan bunday mashg'ulotlarim o'quvchilarni yanada faollashtirib, jonajon O'zbekiston haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga hissa qo'shadi.

**Gavhar BOYNAZAROVA,**  
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi  
22-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

# BACK TO SCHOOL

## Word fil-in





Fill-in the words from the list below so that they will all fit into the puzzle.



## COLORS

### DIRECTION


- Look at the pictures.
- Color each crayon.
- Fill-in the first letter and find each word in the puzzle.



|   |   |   |   |   |   |   |   |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| B | L | A | C | K | R | E | P |
| R | G | R | B | L | U | E | I |
| O | G | R | E | E | N | B | N |
| W | R | E | D | P | B | R | K |
| N | B | O | R | A | N | G | E |
| P | U | R | P | L | E | G | R |
| Y | E | L | L | O | W | O | P |

## WHEN, WHY, WHAT, WHERE, WHO???

When \_\_\_\_\_  
Why \_\_\_\_\_  
Where \_\_\_\_\_  
What \_\_\_\_\_  
Who \_\_\_\_\_



### FILL IN THE CORRECT WORD IN QUESTIONS:

- \_\_\_\_\_ is your favourite writer?
- \_\_\_\_\_ is your Dad's birthday?
- \_\_\_\_\_ is your favourite game?
- \_\_\_\_\_ are you doing now?
- \_\_\_\_\_ did you do yesterday?
- \_\_\_\_\_ are the babies crying?
- \_\_\_\_\_ do you get up?
- \_\_\_\_\_ do you go to school?
- \_\_\_\_\_ is the kitten?
- \_\_\_\_\_ swims faster? You or your brother?

Zilola SIROJIDDINOVA,  
the teacher of school № 41 in Angren city, Tashkent region

## WHAT IS THE PASSIVE VOICE?

In general, the active voice makes your writing stronger, more direct, and, you guessed it, more active. The subject is something, or it does the action of the verb in the sentence. With the passive voice, the subject is acted upon by some other performer of the verb. But the passive voice is not incorrect. In fact, there are times when it can come in handy. Read on to learn how to form the active and passive voices, when using the passive voice is a good idea, and how to avoid confusing it with similar forms.



The difference between active and passive voice.

While tense is all about time references, voice describes whether the grammatical subject of a clause performs or receives the action of the verb.

**Example:** A boy kicked the ball.

In a passive voice construction, the grammatical subject of the clause receives the action of the verb. So, the ball from the above sentence, which is receiving the action, becomes the subject.

**Example:** The ball was kicked by the boy.

That last little bit «by the boy» is a prepositional phrase that tells you who the performer of the action is. But even though the boy is the one doing the kicking, he's no longer the grammatical subject. A passive voice construction can even drop him from the sentence entirely.

**Example:** The ball was kicked.



## WHEN, THEN, SHOULD WE USE THE PASSIVE VOICE IN PREFERENCE TO THE ACTIVE?

We often prefer to use the passive voice when:

«I don't know who did it, but my pet rabbit has been let out».

«I had the feeling that I was being followed».

**instead of:**

«I don't know who did it, but someone has let out my pet rabbit».

«I had the feeling that somebody was following me».

## WHEN IT IS OBVIOUS TO THE LISTENER OR READER WHO THE AGENT IS:

«I had been instructed to remove all the ash trays».

«She discovered that she was being paid less than her male colleagues».

**instead of:**

«My boss had instructed me to remove all the ash trays».

«She discovered that the firm was paying her less than her male colleagues».


*Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!*

## FORMING THE PASSIVE VOICE

*The passive voice is not a tense in English. Each tense has its own passive voice which is created by using a form of the auxiliary verb to be + V3 (past participle)*

**The passive voice in each tense:**

| Tense               | Auxiliary verb + V3             | Examples                                                           |
|---------------------|---------------------------------|--------------------------------------------------------------------|
| Present simple      | am/is/are + made                | Many cars are made in Japan.                                       |
| Present Progressive | am/is/are + being + sent        | The document is being sent right now.                              |
| Past simple         | was/were + invited              | We were invited to their wedding.                                  |
| Past progressive    | was/were + being + washed       | Their cars were being washed while they were in the mall shopping. |
| Future              | will be + signed                | The contract will be signed tomorrow.                              |
| Future (going to)   | am/is/are + going to be + built | New houses are going to be built in our city.                      |
| Present perfect     | have/has + been + sold          | That start-up has been sold for \$ 5 million.                      |
| Past perfect        | had + been + hired              | The new manager had been hired before I left the company.          |
| Future perfect      | will + have been + finished     | The car will have been loaded by the time he gets home.            |
| Modals: can/could   | Can/could + be + issued         | He said the documents could be issued within the week.             |
| Modals: must        | must + be + stopped             | Criminals must be stopped before they commit crimes.               |




**Complete the sentences using the correct form of the passive voice in the correct tense.**

- The law \_\_\_\_\_ next week. (declare)
- Your homework \_\_\_\_\_ by tomorrow afternoon. (must finish)
- That house \_\_\_\_\_ since I was child. (not paint)
- Smoking \_\_\_\_\_ in this hotel. (not allow)
- After all the flights \_\_\_\_\_ the tourists checked in at airport hotel. (cancel)
- The car \_\_\_\_\_ for over a week. (not wash)
- He \_\_\_\_\_ a new contract last year. (give)
- This song \_\_\_\_\_ by the Beatles in 1967. (write)
- The earth \_\_\_\_\_ if we try hard enough to do something. (can save)
- The new road \_\_\_\_\_ at the moment. (build)





# RAHBARINGIZ HAQIQIY TA'LIM FIDOYISI EKAN... BU SO'ZLARNI KO'P BORA ESHITGANMIZ



**Hazrat Mir Alisher Navoiyning ushbu satrlarini ko'p eslayman:**

**Bu gulshan ichra yo'qtur, baqoguliga sabot,**

**Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot. Haqiqatan, bu dunyoda hech kim mangu yashamaydi, lekin xalqi uchun fidoyi kishining nomi, uning ishlari abadiy qoladi. Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabi rahbari Sayfulla Mahkamov 50 yildan ortiq ta'limda faoliyat yuritib, o'zlaridan yaxshi nom, munosib shogirdlar qoldirib ketdilar.**

1999-yil barcha o'quv fanlaridan dasturlar yangilandi. Bizning bir qavatli, pechkalar bilan isitiladigan, eshik va deraza romlari bo'yalaverib yaxshi yopilmaydigan, «to'kilay» deb turgan maktabimiz respublika bo'yicha adabiyot fanidan tajriba sinov maydonchasi, deb belgilandi. To'qqiz oy davomida dasturni tajribadan o'tkazishimiz, yangi reyting tizimida ishlashimiz, viloyatlardagi o'qituvchilar uchun seminar, darslar tashkil etishimiz kerak edi. O'sha vaqtdagi xalq ta'limi vaziri Jo'ra Yo'ldoshev, dastur rahbari O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov, Milliy universitet professorlari, Respublika ta'lim markazi direktori G'ayrat Shumarov, metodistlar maktab bilan tanishgani kelmoqchi bo'ldilar. Biz maktab, sinfxonalar ahvolidan xijolat edik. Hatto tumandagi ayrim rahbarlar respublikada 9000 dan

sinf xonasini mebel va ko'rgazmali qurollar, devoriy suratlar, «Xamsa»ga ishlangan cho'l muzeyini eslatuvchi plakatlari bilan jihozlab berdilar. Maktabda bittagina vodoprovd jo'mragi bor edi, uch kundayoq ustalarni chaqirib qator jo'mraklar o'rnatildi. Maktabga kiraverishda har bir sinf uchun kiyim ilgichlar

ortiq maktab bor, boshqasini tanlaylik ham deyishdi. Shunda vazirlik mas'ullari «Bizga chiroyli maktab emas, tajribali, halol o'qitib beradigan kuchli o'qituvchilar kerak», deyishdi. Bir haftada Sayfulla aka to'rtta

qo'yilgan edi, o'sha yerga allaqayoqdan yumshoq divan, kreslolar topib kelib qo'ydilar. Ko'nglimiz biroz xotirjam bo'ldi. Eng qizig'i, xalq shoiri Abdulla Oripovni divanga taklif etsalar-da, u kishi «Fayzli maktab ekan, partada o'tiraman», dedilar. Barchani kutib olib kuzatdik, shunda Sayfulla aka «Odobni buyuklardan o'rganish kerak ekan», dedi. Yil davomida ko'plab kuzatuvchilar, turli viloyatlardan o'qituvchilar dars kuzatishga kelishdi va «Rahbaringiz haqiqiy ta'lim fidoyisi ekan, bunday inson bilan ishlash baxt», deb bizga havas qilib ketishdi.

Eng asosiysi, gazeta va jurnallar, badiiy asarlarni tinmay mutolaa qilishdan charchamasdilar. Har kuni kamida 30-40 betdan o'qib, har bir o'qigan asarlari yuzasidan fikr bildirardi. U kishi ko'pincha, Amir Temur haqidagi romanlarni, ensiklopediyalarni o'qirdi. Tohir Malik eng sevgan yozuvchilari edi. «Xudoyberdi To'xtaboyev kabi bolajon, hayotsevar, sofidil, beg'ubor bo'lishni istayman», der edilar.

Ha, bu inson haqida yozsak ado bo'lmaydi. «Oqtepa» mahallasi-da Mahkamovlarni o'qituvchilar sulolasi deyishadi. Ubaydulla Mahkamov, Sayfulla Mahkamovning farzandlari, kelinlari, jiyanlari ham bu kasbni davom ettirib kelmoqdalar. Ishonamizki, bu sulola yana ko'p yillar ta'limga halol, vijdonan xizmat qiladi.

**Mahmuda VALIYEVA,  
Xalq ta'limi a'lochisi**



**Uzoq yillar davomida men jurnalist, shuningdek, o'quvchining onasi sifatida Sayfulla aka bilan ko'p suhbatlashdim, maslahat oldim, yordamlariga tayandim.**

## OTAM HAQIDA SO'Z

**Ikki zot borki, ularning mehr-u muhabbati sotilmaydigan yagona, tanho tuyg'udir.**

Men ziyoli oilada tavallud topdim. Otam Sayfulla Mahkamov o'z hayotlari davomida ilm dargohida ziyo tarqatgan ustoz edilar. Onajonim Saodat Mahkamova bir necha yillar mobaynida shifokor bo'lib faoliyat yuritganlar.

Otajonim juda kamtar, oliyanob, shu bilan birgalikda, bag'rikeng inson edilar. Biz farzandlarga bergan tarbiyalarida ko'pincha insonlarni eshita olish, ularga qo'ldan kelganicha yordamini ayamas edilar. Yoshlik chog'lari-mizdan kitobga mehr uyg'ota oldilar. Esimda, juda ko'p ertak kitoblari, badiiy asarlarni olib kelib bizlarga mutolaa qilishni va o'qigan asarlar bo'yicha fikr-mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashar edilar. Eng ko'p kitob mutolaa qilganga, albatta, o'z ijobiy fikrlarini aytar edilar. Biz farzandlar ana shu ijobiy fikrlarni eshitish uchun harakat

qilib juda ko'p kitob o'qiganmiz. Mana shularni xotirlaganimda, otajonim naqadar bizlar uchun buyuk meros qoldirganlarini his qilaman. Oilada biz 3 farzand bo'lib, hammamiz ham oliy ma'lumotli bo'lib, hayotda o'z o'rnimizni topdik. Otajonim uzoq yillar qilgan samarali faoliyatlari uchun 2006-yilda Mustaqilligimizning 15 yilligi, 2008-yil O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi, 2017-yil O'zbekiston Konstitutsiyaning 25 yilligi ko'krak nishoni bilan taqdirlanganlar. O'z umrlari davomida ziyo tarqatgan otajonimni Hazrati Inson, desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

**Shahnoza RASULOVA,  
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabi rahbari**

## UMRGA TATIGULIK NASIHAT

Hamisha samimiy, jonkuyar, og'ir-bosiq, suhbatdoshini diqqat bilan tinglaydigan bu inson haqida boshqalardan ham juda ko'p yaxshi gaplari eshitdim. Ayniqsa, bir voqeani tez-tez eslayman. Uni menga Sayfulla aka rahbarlik qilgan maktabning bitiruvchilaridan bo'lgan bir yigit so'zlab bergandi. Mana o'sha xotira:

6-sinfda o'qirdim. Bir kuni... darsdan kech qoldimmi yoki uyga berilgan vazifani tayyorlab kelmaganim uchun muallimdan qo'rqibmi, ishqilib, bir darsga kirmay, maktab hovlisining chekkaroq joyida o'tirgandim. Kutilmaganda direktorimiz kelib qoldilar. Men juda qo'rqib ketdim. Hozir meni urishadi yoki sinfga olib kirib, hammaning oldida adabimni beradi, degan xayolda sekin o'rnimdan turdim. Direktorimiz indamay menga yaqin keldilar.

Hech qanday so'roq-savol ham bo'lmadi. Ismimni aytib, bitta gapni aniq-tiniq aytdilarki, qulog'imga, dilimga quyilib qoldi: «Hech qachon yodingdan chiqarma, o'g'lim. Sen olim bo'lmasliging mumkin, lekin odam bo'lishing shart!» Maktabdan o'n yil davomida olgan saboqlarimning eng foydalisi shu so'z bo'lsa kerak.

O'ylaymanki, Sayfulla akaning o'z o'quvchilariga ham ustoz, ham ota bo'lib aytgan ibratli, bir umrga asqotadigan bu kabi nasihatlar juda ko'p bo'lgan. Ular shogirdlarni hayotning har xil vaziyatlarida adashmaslikka, to'g'ri qadam bosishga undab turadi.

**Muhtarama ULUG'OVA,  
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi**

# FAQAT QIZLAR O'QISIN!

# O'ZBEKCHA GAPIRING, QIZLARJON!



**Ma'lumki, til – millat ruhiyatining ko'zgusi, har bir xalqning birlamchi belgisi hisoblanadi. O'z tilini yo'qotgan millat o'zligini ham yo'qotishi muqarrar. Zero, til taqdiri millat, Vatan taqdiri demakdir.**

**«Til bilgan – el biladi», degan naql bor xalqimizda. Shu bois, azal-azaldan ajdodlarimiz imkon qadar ko'proq tillarni o'rganishga harakat qilganlar, o'zgalarni ham shunga da'vat qilganlar. Chunonchi, buyuk alloma Abu Nasr Farobiy yetmishdan, Abu Rayhon Beruniy o'ndan ortiq tillarni bilgani haqida ma'lumotlar bor.**

Zamonlardan zamonlarga, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelayotgan moddiy, ma'naviy boyliklar, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analарimiz ham bizga aynan til orqali yetib kelganini yaxshi bilamiz.

Men bugun bejizga til haqida so'z ochganim yo'q. Ajdodlarimiz ulug'lagan, faxr va iftixor bilan shu tilda ijod qilgan, asrlar osha sofligini saqlab kelgan o'zbek tilimizga yoshlarning bugungi kundagi munosabati haqida fikrlashishni niyat qildim. Bunga esa Madina ismli poytaxtlik tengdoshingizning kuyunchaklik bilan yo'llagan quyidagi maktubi sabab bo'ldi.

## DUGONAMNI TANIMAY QOLDIM...

To'qqiz yil bir partada o'tirgan eng yaqin, sirdosh dugonam Sevara, o'zining ta'biri bilan aytganda, «nufuzli» litseylardan biriga o'qishga kirdi-yu, butunlay o'zgarib qoldi. Nafaqat kiyinishi, yurish-turishi, balki gap-so'zlari, dunyoqarashi, fikrlashi ham o'zgardi. Uning aytishi-

cha, litseydagi yangi dugonalari o'ta «zamonaviy» qizlar bo'lib, ular bilan faqat rus tilida gaplashishar ekan. Oralarida o'zi o'zbek bo'la turib, o'z ona tilida bir og'iz ham so'z aytolmaydiganlari ham bor ekan...

Tunov kuni ko'chada Sevarani uchratib qoldim. Menga ham ruscha-o'zbekcha so'zlarni qorishtirib, allaqanday brendlar haqida, bir-biriga moslab olgan kiyimlari, tufli va sumkalari haqida gapirar ekan, bolalikdan qadrdon dugonamni taniyolmay qoldim. Nahotki, shu maqtanchiq qiz men bilgan tortinchoq, kamtar, kamgap dugonam Sevara bo'lsa?!

– Barcha dugonalарim «den rojdeniya»larini «takoy» joylarda nishonlashar ekan. Men ham «den rojdeniyam»ni zo'r qilib o'tkazaman! Sen ham borasan. Butikdan yangi ko'ylak

olib, «takoy» bo'lib borsang, seni ular bilan tanishtiraman... Ha, aytgandek, meni Sevik, deb rus tilida tabriklagin, okey?..

Sevara aytganidek qildi. Dadasining: «Qizim, buving og'ir betob bo'lib shifoxonada yotsalar-u biz tug'ilgan kuningni nishonlasak, to'g'ri bo'ladimi?

## Go'zallikning jilosi hayo.

Biroz sabr qilgin, buving tuzalib chiqsinlar, keyin har qancha xursandchilik qilsak yarashadi. Qolaversa, hozir dori-darmonlarga ham anchagina pul ketyapti...», deyishiga qaramay, men dugonalарim oldida uyalib qolamanmi, deya xarxasha qilib, tug'ilgan kunini katta qilib nishonladi. Lekin men uning aytganini qilmadim, butikdan yangi

ko'ylak ham sotib olmadim. Ertalab barvaqt uyiga chiqib, unga atalgan tilaklarimni sof o'zbek tilida bayon qildim. Ziyofatiga bora olmasligimni aytib, uzr so'rab, sovg'amni berib chiqdim...

Chunki men Sevaraning fikriga umuman qo'shilmayman. Uning fikricha, o'zbek tilida emas, o'zga tillarda muloqot qilish madaniyat belgisi emish. Mening fikrimcha, ona tilimizda faxr bilan so'zlashishimiz, uning nufuzini oshirishimiz, rivojiga hissa qo'shishimiz lozim.

## TIL O'RGANING, AMMO...

To'g'ri, til bilish madaniyat belgisi. Inson qancha ko'p tilni bilsa, uning qarshisidagi imkonlar yo'li shuncha kengayaveradi.

Xorijiy tillarni o'rganing, lekin o'z tilingizni unutish, kamsitish hisobiga emas. O'zga tillarni o'z tilidan ustun qo'yish, ona tilida emas, xorijiy tilda so'zlashish – madaniyatsizlik, o'z Vatani, o'z xalqini hurmat qilmaslikdan boshqa narsa emas. Men bunday holatni madaniyat emas, mayda illat, deb baholayman.

Keling, yoshlarimiz (hammasi demayman, ayrim yoshlarimiz) ma'naviyatidagi bunday kemtiklikka kim yoki nima sabab, degan savol atrofida bir fikrlashib ko'raylik. Ko'pchilik bu holatga globallashuv, sivilizatsiya jarayonlarini sabab qilib ko'rsatadi. Xo'sh, Yaponiya, Xitoy, Turkiya kabi rivojlangan mamlakatlarda globallashuv, sivilizatsiya jarayonlari kechmayaptimi?! Nima uchun

bu kabi davlatlarning yoshlari bir emas, bir necha xorijiy tillarni puxta bilgani holda, o'z yurtida o'z ona tilida so'zlashishni ma'qul ko'rishadi? Nima uchun ularda o'z millati, tili bilan faxrlanish tuyg'usi ustun-u, bizda esa..? Nazarimda, bizda ta'lim-tarbiya masalasida mo'rt nuqtalarimiz ko'p.

Mahmud Qoshg'ariy «Devonu lug'otit turk» asarida «Odobning boshi tildir», deb yozgan. Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» dostonida esa til odobiga «Aql ko'rki so'zdir va til ko'rki so'z», deya ta'rif beriladi. Demak, o'z ona tilida chiroyli so'zlamok, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilmoqlik – odob-axloqning bir ko'rinishi ekan.

Ma'lumki, milliy tarbiyamizning boshi kalomdir. Farzandlarimizga go'daklik chog'lari-danoq, o'zingdan kattalarni ko'rganingda, o'ng qo'lingni ko'ksingga qo'yib, «Assalomu alaykum», deya salom bergin, deb o'rgatamiz.



Vaholanki, shunday «zamonaviylashib» ketgan oilalarimiz ham borki, hatto salomlashishda ham xorijiy so'zlardan foydalanishadi. Bunday oilada voyaga yetayotgan farzandlar uchun esa tabiiyki, milliy g'urur, iftixor tuyg'ulari yot bo'ladi. O'z ona tilida gapirishdan or qiladigan, xorijiy tillarda so'zlashishni zamonaviylik, madaniyat belgisi, deb biladigan yoshlarni odobli, axloqli deb bo'ladimi?!

Bizning butun dunyo havas qiladigan sharqona odob-axloqimiz, madaniyatimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz bor. Ajdodlarimiz ularga amal qilishgan, biz avlodlarga ham bus-butun, sayqallab yetkazishgan. Bugun Davlat tilimizning nufuzini oshirish, mavqei ni yuksaltirish vazifasi Siz – yoshlarning zim-mangizda. Ayniqsa, Siz – qizlarimizning bu borada mas'uliyati kuchli. Chunki siz kelajakda bir oilaning bekasi bo'lasiz, farzandlar tarbiyalaysiz. Shunday ekan, qalbingizda milliy g'urur, iftixorni shakllantiring. Tilingizni, urf-odatlaringizni o'zgartirib, o'zligingizni yo'qotmang. Zero, Siz millat kelajagini tarbiyalaysiz!

Feruza JALILOVA

## Qiz bolaning qalbi pok bo'lsin!



## SADOQAT MASKANIM, O'ZBEKISTONIM!

Har hovuch tuprog'i oltinim, konim,  
Boyligim, yashnagan bog'-u bo'stonim.  
Sen mening borimsan tandagi jonim,  
Go'zalim, bebahom, O'zbekistonim!

Senga Humo qushi mangu bo'lsin yor,  
Ey, sen quyosh bilan dillashgan diyor.  
Ko'ngilga nur sochib yugurgan bahor,  
Zo'r qudrat manbayim, O'zbekistonim!

Nurli kelajaging bizga imtihon,  
Oqko'ngil yoshlaring ahdiga ishon.  
Seni tan olmoqda jumlayi jahon,  
Sadoqat maskanim, O'zbekistonim!

**Umida SULAYMONOVA,**  
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti  
talabasi*

## UMRIMIZ MAZMUNI

Ko'zimning qarog'siz,  
Qalbimning chirog'siz.  
Yuragimning bog'isiz,  
Umrimiz mazmunisiz.

Onajonim suyanchim,  
Beg'uborim quvonchim.  
Pok tilkaklar mash'ali,  
Mening dilda ishonchim.

Qalbingiz to'la mehr,  
So'zingizda bor sehr.  
Ulg'ayaman men har on,  
Parvonamsiz onajon.

**Rayhona RAJABOVA,**  
*poytaxtimizning Olmazor  
tumanidagi 243-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi*

## BEBAHO DURSAN


Bu ko'hna olamda ona tilimdek,  
Mo'ysafid, tabarruk, ulug' nima bor?  
G'ururi toptalgan alvon dilimdek,  
Tarix sahnasidan tushmas u zinhor.

Qoshg'ariy qo'lida ilk tetapoya,  
Mag'rur odimlading ko'kka intilib.  
«Qissasi Rabg'uziy» bo'ldi himoya,  
Har bir kalomidan nurlar yog'ilib.

Lutfiying lutfidan to'kilgan dursan,  
Hech bitta fuzalo bas kelolmagan.  
Atoiy qalbidan ungan mehrsan,  
Yoriga senchalik tashbeh bitmagan.

Quyosh bo'lib chiqdi osmon ko'shkidan,  
Shoirilar sultoni Hazrat Alisher.  
Chaqinlar chaqnadi ko'ngil ko'zidan,  
Sel bo'lib yog'ildi yuragidan she'r.

**Qunduz ISLOMOVA,**  
*Buxoro shahar,  
16-umumta'lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani  
o'qituvchisi*



## YURTIM KELAJAGI BUYUK DAVLAT!

*(O'zbekiston Respublikasi  
Mustaqilligining yigirma to'qqiz  
yilligiga bag'ishlanadi)*

Navoiy nazmini bilmoq istasang,  
Bobur bayotini ko'proq istasang,  
Kitob o'qib dono bo'lmoq istasang,  
Bu barcha yoshlarga ulkan da'vatdir,  
Yurtim kelajagi buyuk davlatdir!

Har sohada ildam tashlaylik qadam,  
Bu ezgu ishlarda barchamiz birdam.  
Shukronalar aytib yuraylik har dam,  
Dunyo ko'z o'ngida baland savlatdir,  
Yurtim kelajagi buyuk davlatdir!

**Ilhomjon ABDUSALOMOV,**  
*Parkent tumanidagi 44-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi*



## YAXSHI ODAMLAR

*(Huquqshunos tog'alarimga)*

Bu dunyoda ko'pdir yaxshi odamlar,  
Qadriga yetaylik bu aziz damlar,  
Doim to'g'ri yo'lga tashlab qadamlar,  
Sizni so'rab keldim, yaxshi odamlar.

Siz borki, adolat hukm surmoqda,  
Siz borki, razolat jazo olmoqda,  
Siz borki, yurtimiz obod bo'lmoqda,  
Baxt sizga yor bo'lsin, yaxshi odamlar.

Qonunlar ustida ishlab tolmaysiz,  
Mehrdan bir laha chetda qolmaysiz,  
G'animning so'ziga quloq solmaysiz,  
Sizga ming tasanno, yaxshi odamlar.

**Robiyaxon HASANBOYEVA,**  
*Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi  
29-umumta'lim maktabi o'quvchisi*

## BIZ O'ZBEK ELINING ZUKKO YOSHLARI

Bu ko'hna olamning olmos toshlari,  
Biz o'zbek elining zukko yoshlari,  
Porlasa iste'dod, zavq quyoshlari,  
Ko'p ezgu ishlarga turtki ittifoq.

Yurt uchun xalq uchun yonib yashaylik,  
Illatlar domidan tonib yashaylik,  
G'alaba zavqidan qonib yashaylik,  
Ko'p ezgu ishlarga turtki ittifoq.

Yuksak marralarga intilmoq kerak,  
Bu yo'lida ittifoq bizlarga tirgak,  
Vatan ishq birla yonsa gar yurak,  
Ko'p ezgu ishlarga turtki ittifoq.

Aslida, hech kimdan kam emasmiz biz,  
Kuch yetar tog'larni cho'ktirmoqqa tiz,  
Birlashsak, bilingki biz katta kuchmiz!  
Ko'p ezgu ishlarga turtki ittifoq.

**Davron ERGASHEV,**  
*Jizzax viloyati, Sharof Rashidov  
tumanidagi 29-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi*

## YAGONAM – ONAM

Dunyoda bittadir –  
Yagonam – onam.  
Men bir g'unchadirman,  
Gulxonam – onam.  
O'zi kiymay menga  
Kiydirganim siz.  
Faqat yaxshilikni  
Ilinganim siz.  
Ismingiz jismingiz  
Bezab turadi.  
Yuragingiz faqat  
Biz deb uradi.

**Mushtariybonu TURSUNOVA,**  
*poytaxtimizning Sergeli  
tumanidagi 104-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi*



## VATANGA

Shunday she'rilar yozayki butkul,  
Dunyo ahli o'qib qolsin lol.  
Men kuylayman misoli bulbul,  
She'rilarim ham topadi iqbol.

Men shunchaki she'rilar yozmayman,  
Orom bermay nuqul qalamga.  
She'rim o'qir har bitta odam,  
Men yozaman ulug' Vatanga!

**Hayotbek BO'RIBEKOV,**  
*Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi BABM  
«Yosh jurnalist va notiq» to'garagi a'zosi,  
5-umumta'lim maktabi o'quvchisi*



(Davomi.)

**Boshi o'tgan sonlarda)**

Tanaffusda sinfdoshim Doniyor ancha bilimli bo'lgani uchun uning fikri bilan ham qiziqdim:

– Sen sirli kalit haqida eshitganmisan?

Endi men o'zimga tushunarsiz va sirli bo'lib tuyulgan o'sha belgilarni birlashtirib, shunday atay boshlagan edim.

Doniyor garchi bilimda undan o'zib ketishimni istamasa-da, ammo bilgan narsasini o'zgalarga berishda, fikrlashishda samimiy va fe'li keng edi:

– Eshitgandayman. Ammo bu ko'proq e'taklarda aks etadi. Masalan, bahodirlar sehlangan qasrlarga kirishda yoki tilsimlarni yechishda undan foydalanganlar.

Doniyor menga go'yo jumboqni yecha boshlayotgan donishmanddek ko'rinsa boshladi. Men esa yuragim oshiqqancha suhbatga tushdim:

– Sirli kalit – so'zlarda, har xil raqamlarda ham aks etishi mumkin, shundaymi?

– U nafaqat so'z va raqamlarda, ularga o'xshamagan belgi va ishoralarda ham ifodalanishi mumkin.

– Ya'ni, qadimgi harakatli tasvirlarni aytapsanmi?

– Ha-da.

So'zimni eshitib turgan Turg'un gapga aralashdi:

– Eskicha kitoblar haqida gaplashyapsizlarmi?

Doniyorning jahli chiqdi:

– Eskicha emas, diniy yoki qadimiy kitoblar, desang, to'g'ri bo'ladi.

– Ha, o'sha eskicha-da!

Doniyorning yana peshonasi tirishdi. Men Turg'un nimadir demoqchiligini sezdim-u, unga gal berdim:

– Xo'sh, nima demoqchiyding?

– Dadamning kutubxonasida ham eski qo'lyozmalar bor.

– Kimlarga tegishli?

– Dadam bir do'stlari bilan suhbatlarida aytgan edilarki, bu yerda dunyo olimlarining noyob kitoblari bor ekan. Faqat bular – sir. Ularni birovlariga aytish mumkin emas. Faqat sizlarga aytdim, – deya so'zi oxirida maqtanib ham qo'ydi.

– Hadeb kekkayib yurguncha, shularning sirini o'rgansang o'lasanmi?! – Doniyorning yana jiz-zakiligi tutdi.

Men esa ularni o'zaro kelishtirishga harakat qildim. Chunki bu menga yana bir imkoniyat edi. Agar Turg'unni ko'ndirib, dadasining kutubxonasiga kirib, adabiyotlarini o'rganishga muvaffaq bo'lsam, izlaganimga erishishim mumkin. Ammo tushunyapmanki, buni yolg'iz o'zim uddalashim amri mahol. Endi menga yaqin yordamchilar kerakligini angladim. Bunda menga Turg'un, Doniyorlarning yordamlari kerak bo'ladi. Shuni o'yladim-u maqsadga ko'chdim:

– Turg'un, sen bizga yordam berishing kerak. Doniyor ikkalamiz dadangning kutubxonasiga kirib, bir ma'lumotni topishimiz zarur. Bu hammamiz uchun muhim.

Turg'un biroz o'ylanib turdi-da, rozilik berdi:

– Mayli, men sizlarga dadam xizmat safariga ketgan vaqtlarida xabar qilaman, uyga kelasizlar.

– Kelishdik, – deya o'zaro qo'l tashlashdik.

Doniyor olib, bizning uyimizga ketdik. Amakim bizni ko'rib, hol-ahvolimizni so'radilar:


– Ha polvonlarim! Izlaganlarinigizni topyapsizlarmi?

– Harakat qilyapmiz, amakijon, harakat qilyapmiz!

Shuni ham bilishimiz kerak. Chunki ularda ham bunday ishoralar bo'lishi mumkin. Amakimning bir dono gaplari bor: «Tarixda o'tgan barcha ulug' allomalarni, sarkarda-yu qahramonlarni, qaysi millat, elat vakili bo'lishidan qat'iy nazar, yagona bir sabab bog'lab turadi. Bu – ilm, zakovat va yuksak iste'dod».

– Bu bilan demoqchisanki, ayni alomat masalasida ular ham-fikr bo'lishlari mumkin, – fikrimni to'ldirdi Doniyor.

– Ofarin! Agar ularda ham shu belgilarni topsak, jamlab, umumlashtiramiz. Bu men yaratayotgan dastur uchun sirli kalit tilsimini yechish imkonini berishi mumkin.



Otabek QUVVAT

## OLIMJONNING SARGUZASHTLARI YOXUD ZAMON VA MAKON ORALIG'IDA

(Sarguzasht-fantastik qissa)

– Yaxshi. Ammo dam olib-dam olib ishlanglar. Yana toliqib qol-manglar!

– Xo'p bo'ladi, – deya kechki ovqatni chala-chulpa yedig-u kutubxonaga kirib ketdik.

Kech bo'lib ketdi. Doniyor biznikida qoladigan bo'ldi. Ikka-lamiz ham kitob titib o'tiribmiz. Bir vaqt Doniyorning:

– Topdim! – degan tovushi eshitildi.

Qarasam, uning qo'lida yana bir eski kitob turibdi. Ammo bu muallifi noma'lum qadimiy kitob edi. Unda ham shakl bo'lib, bel-gilar soni jihatidan kamroq, biroz xiraroq tasvirlangandi. Buni ko'rib, tilla topgan telbadek quvonib ket-dim. «Yasha, oshnajor», deb uni quvonganimdan ko'tarib oldim-da, bag'rimga bosdim.

– Doniyor, – dedim unga, – kutilgan natijalar yuz ko'rsata boshlamoqda. Endigi naviyat Turg'unlarning kutubxonasiga.

– Xo'sh, – menga keyin-chi, degandek boqdi Doniyor.

– Bu sirli belgi bizning mutafak-ir bobolarimiz asarlarida qayd etilgan. Yunon, hind, yapon yoki g'arb olimlarining asarlarida-chi?

Tilsim ortida yashiringan so'z yoki raqamlar ma'nosini topsak, dasturga kirish imkonini bo'ladi va men uni yakunlayman. Keyin esa internet tarmog'ida loyihamni sinab ko'ramiz, – dedim men ovozimni asta pasaytirib, go'yo eshik ortida kimdir poylab turgandek.

– To'g'riku-ya. Ammo belgi va raqamlarda ham ilohiylik bor. Agar ularning boshi va yakuni tutashgan sarhadlarda turib qolsang, seni makon va zamon chegarasidan olib o'tib ketishi mumkin. U olam-ga tushib qolsang, barchasi sen kitobda o'qiyotgandek ketmaydi. Aksincha, hammasini boshingdan kechirasan. Hatto bu yo'lda halok bo'lishing mumkin. Bu esa hayoting ostin-ustun bo'ladi degani, – bu gal Doniyorning ko'zlarida xavotir alomatlarini paydo bo'lgandi.

– Mayliga, do'stim, dunyo ostin-ustun bo'lmasligi uchun birgina insonning hayoti ostin-ustun yoki halok bo'lsa, bu yo'qotish hisoblan-maydi. Ammo bilib qo'y, men shu sarhadga tushib qolsam, safarga bir o'zim chiqaman. Sen bu yerda qolasan. Xuddi o'zimga o'xshagan bolakayni topib, uni Olimjon deb ataysan, uyimga kelib-ketishini,

maktabdagi mashg'ulotlarga ke-lishini ta'minlab turasan. Toki o'z ishlarimni yakunlab qaytgunimcha meni, «Olimjon o'z joyida, o'qib yuribdi», deb o'ylasin hamma. Hattoki ota-onam ham, amakim ham bilmasliklari kerak. Tushun-dingmi?!

Xayolimni ko'zlari ola-kula bo'lib ketgan Doniyorning: «Hey, sen bola nimalar deyapsan? Esing joyidami?! Men hoziroq uyimga ketaman. Seni tanimayman!» degan gaplari bo'ldi.

Men esa Doniyorini hay-haylab, bir amallab yo'lidan to'xtatdim va shartimga ko'ndirdim.

Maktabda Turg'unni ko'rib:

– Dadang qachon safarga keta-dilar? – deb so'radik.

– Indinga.

– Demak, dadang safarga ke-tishlari bilan sen bizni chaqirasan, shundaymi?

– Shunday!

Turg'un aytganidek, o'sha kuni dadasi safarga ketdi. Biz uning darsxonasida dars tayyorlayotgan-dek o'tirdik. Kech bo'lib qolganli-gini bahona qilib, uylarida qoldik. Oqshom tushgach, asta-sekin yurib borib, kutubxona kalitini olgan Turg'un bizga ishora qildi:

– Ketdik!

Kutubxonaga shundoq kir-gan ham edikki, Turg'unlarning darvozasi taqillab, iti akillab qoldi. Turg'un bizga hozir, dedi-da, borib darvozani ochdi. Qarasa, dadasi. Biz nima qilishimizni bilmay, dong qotib, kitob javonlarining orasiga kirib ketdik. Panaga o'tirib, chiroqni o'chirib oldik.

Uyga kirib kelgan dadasi Turg'unga:

– O'g'lim, bir kitobni olib ketishim kerak edi. Yodimdan ko'tarilibdi. Kutubxona kalitini olib kel, – dedi.

Turg'un shoshgancha dovdirab, «Mana kalit», deb dadasiga tutqaz-di. Dadasi o'g'lga hayron boqib qoldi. Chunki u o'g'lini shuncha majbur qilmasin, kitobga ishtiyoqi yo'qligini tan olgan edi:

– Kitob o'qimoqchimiding, o'g'lim?!

– H-ha, biror qiziq kitob bo'lsa, o'qiy degandim, – dedi Turg'un tili tutilib.

– Juda yaxshi, unday bo'lsa, kirib xohlagan kitobni ko'rishing, o'qishing mumkin. Faqat ularni birovlariga tarqatib yuborma. Xo'pmi? Bu bir xazina. Ularning bahosi yo'q.

– Xo'p!

Dadasi shunday dedi-yu, shitob bilan kutubxonaga kirib keldi va chiroqni yoqdi. To'g'ridagi javon-ga kelib, bir eski kitobni oldi-da, varaqlay boshladi.

Shu payt ne ko'z bilan ko'rayki, Turg'unning dadasi qo'lga taqib olgan soatda biz axtarib yurgan belgining kichik surati bor edi. Hayratdan qichqirib yuborishimga oz qoldi...

(Davomi bor)

## TOPISHMOQLAR

Oppoq shkafcha  
Oshxonada,  
Ishlar to'xtab  
Ishxonada.  
Ochsam, yopsam,  
Kitobi yo'q.  
Olar nafas  
Qishdek sovuq.

Dikir-dikir  
Sakraydi.  
Qo'zi emas,  
Qo'zi bilan  
O'ynaydi.

Charchash nima  
Bilmaydi,  
Kun botganda,  
Joy-joyida  
Uxlaydi.

## TEZ AYTISHLAR

Qo'g'irchoq  
Bo'g'irsoq,  
O'yinchoq  
Ovunchoq.

Boqi polvon,  
Bog'da bog'bon.  
Soqi sog'lom,  
Soqchi - posbon.

Yoz oz-u,  
Soz juda.  
Ozgina ozdi  
Sojida.

Anvar  
MIRZAZODA



**TEST.**  
Davlat mukofotiga sazovor bo'lish har birimizning orzuimizdir. Buning uchun esa xalqimizning e'tirofiga tushish, ko'p mehnat qilishimiz kerak bo'ladi. Mukofotga sazovor bo'lish alohida mavzu.

Bugun e'tiboringizga havola qilayotgan test savollarimiz orqali ana shu ordenlarni qachon ta'sis qilingani haqida. Ularning to'g'ri yechishga urunib ko'ring-chi!

1. «Mard o'g'lon» Davlat mukofoti tasdiqlangan yil?

- A) 2017-yil;  
B) 2015-yil;  
D) 2020-yil.

2. «Kelajak bunyodkori» medali qaysi yili ta'sis etilgan?

- A) 2017-yil;  
B) 2018-yil;  
D) 2019-yil.

3. «Sog'lom avlod uchun» ordeni nechanchi yil ta'sis etilgan?

- A) 1994-yil;  
B) 1993-yil;  
D) 1995-yil.

4. «Jasorat» medali nechanchi yil tasdiqlangan?

- A) 2009-yil;  
B) 1994-yil;  
D) 2005-yil.


Z. NISHONOVA tayyorladi

**BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!**

# «V-V» – TOPQIRLIK MASHQI

**Eniga:** 1. Ishlaridan namunalar jahon va respublika muzeylarida saqlanayotgan xorazmlik ustazoda kulol, Xiva me'moriy ansamblidagi yirik binolarni bezash ishtirokchisi. 2. Rossiya Federatsiyasidagi ladoga ko'liga quyiluvchi daryo. 3. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri. 4. Atoqli biolog, genetik, geograf, jahonga taniqli akademik. 5. O'zbekiston Respublikasi xalq hofizlaridan biri, hamnafas xonanda.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



Oilada yolg'iz farzandman. Ukam chaqaloqligida zotiljam kasalligiga chalinib, vafot etgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, ota-onam meni yer-u ko'kka ishonishmaydi. Maktabga chiqqan chog'im-dan boshlab hamma fanlarni ota-onam ko'magida a'lo baholarga o'zlashtirib kelmoqdaman.

Bir kuni maktabdan uyga kelsam, onajonim yo'lakda xomush o'tiribdilar.

— Assalomu alaykum, oyijon, men keldim, — dedim yonlarga borib.

— Vaalaykum assalom, bolajonim, mening mehribon qizim. Yaxshi keldingmi? — dedilar onam meni bag'rilariga bosib.

— Ha, oyijon, men yaxshiman. Lekin siz nega xomushsiz?

— Biroz charchadim shekilli, e'tibor berma. Yaqinda sening tug'ilgan kuning. Afsuski, senga biror

sovg'a olishga qo'limiz kaltalik qilyapti. Hozirgi sharoitimiz o'zingga ayon, faqat bizdan xafa bo'lmagin, bolajonim, — dedilar og'ir xo'rsinib.

— Eh oyijon, nima, meni shunga xafa bo'ladi, deb o'yladingizmi? Men hech ham xafa bo'lmayman, hammasini yaxshi tushunib turibman.

— Bizni tushunganing uchun ham senga rahmat, bolajonim...

Bugun mening tug'ilgan kunim. Tong saharda uyg'ongan mehribon onajonim oshxonada eng shirin taomlarni tayyorlayaptilar. Otajonim ham uyda ekanlar.

— Assalomu alaykum, otajon, oyijon, yaxshi turdingizmi?

— Vaalaykum assalom, qizim. O'zing yaxshi dam oldingmi?

— Ha, oyijon.

— Qizim, tug'ilgan kuning bilan tabriklaymiz! Umring uzoq, tan-u joning sog', martabang ulug' bo'lsin!

— Rahmat, oyijon, rahmat otajon...

Ota-onamning, martabang ulug' bo'lsin, degan tilaklarini eshitsam, doim xursand bo'laman. Har tong maktab tomon yo'l olar ekanman, puxta bilim olib, oliygohga o'qishga kirib, martabam ulug' bo'lib, ota-onamni quvontirishni niyat qilib ketaman. Maktabda jamoatchilik ishlarida faol bo'lganim uchun jamoatchilik sardori edim. Bir kuni maktabga borishim bilan direktorimiz o'z xonalarga chaqirtirib, meni tuman Kengashi sardori etib tayinlashganini aytdi. Sardor bo'lganim munosabati bilan sovg'a-salomlar, diplomlar bilan taqdirlashdi. Bundan men behad xursand bo'ldim. Uyga borsam, onajonim chiroyli dasturxon tuzabdilar. Bugun erishgan yutuqlarimni ota-onamga aytib, ularni ham quvontirdim.

Mehribonlarim duoga qo'l ochib, meni uzoq duo qilishdi. Aminmanki, bu duolar meni hayotda doim qo'llab-quvvatlaydi. Va men shuni angladimki, sovg'alarning eng yaxshisi bu ota-ona duosi ekan.

Asal RAVSHANXONOVA,

Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi  
114-umumta'lim maktabi o'quvchisi



## SOVG'ANING ENG YAXSHISI

## S PORTCHI, IJODKOR, SARDOR...

**Saodatxon Abdullayeva poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 169-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi. U sportning karate turi bilan muntazam shug'ullanib keladi.**

Sportning bu turiga bo'lgan qiziqish unda 6-sinfda o'qib yurgan kezlarda uyg'ongan. Murabbiyi Ravshan aka Boboxonovning mashg'ulotlariga katta qiziqish bilan qatnagan qizaloqning mahorati ortib, keyinchalik turli musobaqalarda qatnasha boshladi. Bugungi kunda yigirmadan ortiq medallari shodasi uning ko'ksini bezab turibdi. Turli darajadagi diplom va kuboklari bisyor. Umidli sportchi qizimiz ko'k belbog' sohibasi, uch karra respublika chempioni.

O'tgan yili esa Saodatxon Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga nomzod sifatida ko'rsatildi. Bu bejizga emas. Chunki bu yosh sportchining ijodga, she'riyatga ham ishtiyoqi baland. Qolaversa, bu barcha sohada faol tengdoshingiz maktabda Yoshlar ittifoqi sardori, «Qizlarjon» klubi va sinf sardoridir. Faollikni shior qilgan Saodatxonning kelajagi saodatli bo'lishini tilab qolamiz! Uning suratiga qarab bo'ynidagi medallar shodasiga havas qilayotgan bo'lsangiz, siz ham faol yoshlar safiga qo'shiling, Saodatdek ham sportchi, ham ijodkor, ham sardor tengdoshingizdan o'nak oling!

Zuhra NISHONOVA




## FOYDALI MASLAHATLAR



## OSHXONADA ASQOTADI

Oshxonadagi maishiy texnikalarni tozalashda kimyoviy vositalarni ishlatish mumkin emas, albatta. Masalan, mikroto'liqlik pechni olaylik. Undan har kuni foydalanasiz, ovqatlardan qolgan qoldiqlarni tozalash uchun osh sodasi va sirkadan foydalanish mumkin. Buning uchun yarim stakan osh sodasini 3 oshqoshiq suv bilan aralashtiring va pechdagi kirlangan joylarga surib chiqing va bir kechaga qoldiring. Ertasi kuni aralashma surilgan joylarni namlangan sochiq bilan arting.



\*\*\*


Shisha keramikali gaz plitasini tozalash uchun uning yuzasiga osh sodasini sepib chiqing va ustidan sirka quyung. Paydo bo'lgan ko'pikni 15 daqiqadan so'ng artib tozalashingiz mumkin.

\*\*\*

Zanglamaydigan po'lat plitani esa qattiq cho'tka yordamida tozalashingiz mumkin. Buning uchun osh sodasi va sirkali aralashmani sepib, cho'tka bilan tozalasangiz kifoya.

\*\*\*

Gaz pechi ichini tozalash uchun esa gubka asqotadi. Yarim stakan suvni 1/3 stakan soda bilan aralashtirib, idish yuvish vositasidan bir oshqoshiq qo'shamiz va ushbu aralashmaga gubkani botirib, gaz pechining ichini artib chiqamiz. 15-20 daqiqadan so'ng uni toza gubka bilan artamiz. Qarabsizki, gaz pechingiz top-toza bo'lib qoladi.





## YOSH KIMYOGLARLAR QADAMI ILDAM

**Xushxabarlarni ulashishda davom etamiz. Yana bir qator yosh kimyogarlarmiz 52-Xalqaro kimyo olimpiadasida munosib ishtirok etib, yurtimiz sharafigini munosib himoya qildilar.**

Masofaviy tarzda o'tkazilgan olimpiadada dunyoning 60 davlatidan saralangan 235 nafar iqtidorli yosh kimyogarlarni kuch sinashdilar. Quvonarlisi, yakunda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi akademik litsey o'quvchilari Mirumid Miraybarov va Dilshoda Isayevlar kumush medal sohiblariga aylangan bo'lsalar, Buxoro shahridagi 35-umumta'lim maktabi o'quvchisi Firdavs

Sobirov bronza medalini qo'lga kiritdi. Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 49-umumta'lim maktabi o'quvchisi Akobir Narzullayev munosib ishtiroki uchun diplom bilan taqdirlandilar.

Kuni kecha Xalq ta'limi vazirligi tomonidan mazkur olimpiada sovrindorlariga pul mukofotlari hamda oliy ta'limga imtiyozli kirish uchun sertifikatlar topshirildi.

## MAKTAB FORMASI MAJBURIYMAS(MI)?

**Dugonam menga telefon qilib, «Eshitdingmi, bu yil maktab formasi majburiy emas ekan?» dedi. Bu xabardan ikkilanganim uchun darrov internet tarmog'iga kirdim. Qarasam, chindan ham shu xabar bor ekan.**

Xalq ta'limi vazirining ta'kidlashicha, vaziyatdan kelib chiqib, 2020–2021-o'quv yilida ba'zi an'anaviy talablardan voz kechiladi.


Xususan, davlat maktabidagi o'quvchilar uchun forma majburiy bo'lmaydi. O'quvchilar belgilangan umumiy tartibga rioya qilgan holda o'zi istagan kiyimida kelishlari mumkin. Ha, bu yangilik ba'zi o'quvchilar uchun «Maktabga istalgan kiyimda borish mumkin», degan tushunchani keltirib chiqarishi tabiiy, albatta. Ammo biz hali-hamon o'quvchi ekanligimizni, maktab sanalmish ulug' dargohga turli-tuman kiyimlarda kelish joiz emasligini unutmasligimiz kerak, deb o'ylayman.

To'g'ri, ayrimlar «Forma joriy qilinmagan bo'lsa, nima kiyishimizni o'zimiz hal qilamiz», degan fikrni ham bildirishadi. Lekin aziz tengdoshim, bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, ya'ni pandemiya davrida ota-onalarimizning bozorda sarson bo'lib yurmasliklari, siz-u bizning sog'ligimiz, xavfsizligini ta'minlash uchun qabul qilingan qarorligini unutmaylik. Barchamiz sog'ingan maktabimiz, ustozlarimiz quchog'iga munosib libosda boraylik.

**Madina SIROJIDDINOVA,**  
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi  
59-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi



## RANGLAR-JILOSII



**Iroda SHOKIROVA,**  
poytaxtimizning  
Yunusobod  
tumanidagi  
250-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi



**Abdulloh  
ABDURAHMONOV,**  
Toshkent shahri,  
Shayxontohur  
tumanidagi  
157-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi

**BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70**

**Tong  
yulduzi**

**Muassis:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi**

**Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**

Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruza MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir  
Axtamqul KARIMOV**

**Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li**

**Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV**

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@gmail.com](mailto:tongyulduzi1929@gmail.com)  
telegram: [t.me/tongyulduz](https://t.me/tongyulduz)  
Adadi - 1842  
Buyurtma - V 4306

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel. /faks: (99871) 244-63-08